**Loyiha**

**“Bukhara Night Race” xalqaro tungi yugurish musobaqasi**

**NIZOMI**

1. **Umumiy qoidalar**
2. “Bukhara Night Race” xalqaro tungi yugurish musobaqasi (keyingi o‘rinlarda – “yugurish tadbiri”, “sport musobaqasi”, “tadbir”, “ommaviy jismoniy tarbiya tadbiri”) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5282-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 4-maydagi 81-sonli (VM-227 4.05.2023-yil.) muvofiq quyidagi maqsadlarda o‘tkaziladi:
   - madaniyat va san’at joylarida inklyuzivlik muammosiga jamoatchilik e’tiborini jalb etish;
   - sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish;
   - sport turizmini rivojlantirish;
   - O‘zbekiston Respublikasi aholisi, shu jumladan, yosh avlodni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam ravishda shug‘ullanishga jalb etish;

**2. Tadbirning o‘tkazilish joyi va muddati**

2.1. O‘tkaziladigan joyi: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, Buxoro shahri.

2.2. Tadbir o‘tkaziladigan sana: 26.08.2023

2.3. Yugurish tadbirining boshlanishi: mahalliy vaqt bilan soat 16:00 da (UTC+5).

**3. Tadbir tashkilotchilari**

3.1. Tadbir tashkilotchisi: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi;

3.2. Bosh hamkorlar:
   - O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi;
   - Buxoro viloyati hokimligi.

3.3. Tadbirga oid tashkilotchi va bosh hamkorlar o‘rtasida huquq va majburiyatlarning taqsimlanishi, shuningdek, tadbir Tashkiliy qo‘mitasining shaxsiy tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 4-maydagi 81 VM-227-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

3.4. Yugurish tadbirini bevosita o‘tkazish Tashkiliy qo‘mita va Tadbirning Bosh hakamlar hay’ati zimmasiga yuklanadi.

**4. Tadbir tavsifi va uni o‘tkazish qoidalari**

4.1. Tadbir dasturi turli masofalardagi bir necha tur (masofa)dagi yugurish musobaqalarni hamda ishtirokchilar va mehmonlar uchun ulanib ketuvchi ommaviy madaniy tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

4.2. Ommaviy madaniy tadbirlar ishtirokchilar va mehmonlarning rasmiyatchilikdan xoli madaniy hordiq chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida o‘tkaziladi va ular ma’rifiy va interfaol maydonchalarni, sahnadagi konsert tomoshalaridan iborat bo‘lishi mumkin.

4.3. Tadbir quyidagi masofa turlaridan iborat:

| № t/r | **Masofa turlari** | **Masofa uzunligi** | **Masofani bosib o‘tish uchun vaqt chegarasi** | **Ishtirokchilar yoshi** |
|---|---|---|---|---|
| 1. | KIDS RUN – 300 | 300 | 10 daqiqa | 4-6 yosh |
| 2 | KIDS RUN – 600 | 600 | 10 daqiqa | 7-13 yosh |
| 3 | 5K | 5 km | 45 daqiqa | 14 yosh va undan kattalar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 4 | 10K | 10 km | 90 daqiqa | 16 yosh va undan kattalar |
| 5 | NORDIC WALKING | 2 km | 30 daqiqa | 16 yosh va undan kattalar |

4.3.1. “KIDS RUN-300” masofasi:

- mazkur tur 300 metrlik masofada o‘tkaziladi.
- masofa bir aylanada (revers uslubida) bo‘lib o‘tadi, yugurish yo‘lagi chizmasi https://bukharanightrace.uz saytiga joylashtirilgan.
- musobaqada qatnashishga tadbirning start raqamiga ega 4-6 yoshdagi (shu yoshdagilar ham) ishtirokchilari kiritiladi.

4.3.2. “KIDS RUN-600” masofasi:

- mazkur tur 600 metrlik masofada o‘tkaziladi.
- masofa bir aylanada (revers uslubida) bo‘lib o‘tadi, yugurish yo‘lagi chizmasi https://bukharanightrace.uz saytiga joylashtirilgan.
- musobaqada qatnashishga tadbirning start raqamiga ega 7-13 yoshdagi (shu yoshdagilar ham) ishtirokchilari kiritiladi.

4.3.3. KIDS RUN-300 va KIDS RUN-600 masofalarida ishtirokchilarning kiritilishi start to‘plamini qabul qilinayotganda ota-onalar tomonidan taqdim etiladigan quyidagi hujjatlar mavjud bo‘lganda amalga oshiriladi:

- ishtirokchining yoshiga asos bo‘luvchi shaxsni tasdiqlovchi hujjat (barcha ishtirokchilar uchun majburiy);
- masofada qatnashish uchun ota-onalar ruxsatnomasining asl nusxasi va start to‘plami olinayotgandagi ota-onalardan birining shaxsan ishtirok etishi;
- ota-onalar tomonidan imzolangan o‘z farzandi sog‘lig‘i uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi to‘g‘risidagi tilxat.

Hujjatlarni to‘ldirish so‘rovnomasi https://bukharanightrace.uz saytida joylashtirilgan.

Ishtirokchining ota-onasi yoki qonuniy vakillari voyaga yetmagan bolaga butun tadbir davomida start shaharchasi hududida hamrohlik qilishlari shart. Musobaqa davomida ishtirokchiga masofa yo‘nalishi bo‘ylab hamrohlik qilish va yordam berish taqiqlanadi. Ishtirokchilarni marra chizig‘ida kutib turish maxsus ajratilgan joydagina mumkin.

**4.3.4. “5K” masofa turi:**

- mazkur tur 5 kilometrlik masofada o‘tkaziladi
- masofa 1 aylanada bo‘lib o‘tadi, yugurish yo‘lagi chizmasi https://bukharanightrace.uz saytiga joylashtirilgan.
- musobaqada qatnashishga 14 yoshdan oshgan (shu yoshdagilar ham), tadbirning start raqami hamda https://bukharanightrace.uz saytiga joylashtirilgan namunaga muvofiq to‘ldirilgan tilxatga ega ishtirokchilar kiritiladi.

**4.3.5. “10K” masofa turi:**

- mazkur tur 10 kilometrlik masofada o‘tkaziladi
- masofa 2 aylanada bo‘lib o‘tadi, yugurish yo‘lagi chizmasi https://bukharanightrace.uz saytiga joylashtirilgan.
- musobaqada qatnashishga 16 yoshdan oshgan (shu yoshdagilar ham), tadbirning start raqami hamda https://bukharanightrace.uz saytiga joylashtirilgan namunaga muvofiq to‘ldirilgan tilxatga ega ishtirokchilar kiritiladi.

**4.3.6. “NORDIC WALKING” masofa turi:**

- mazkur tur 2 kilometrlik masofada o‘tkaziladi

- masofa 1 aylanada bo‘lib o‘tadi, yugurish yo‘lagi chizmasi https://bukharanightrace.uz saytiga joylashtirilgan.
- musobaqada qatnashishga 16 yoshdan oshgan (shu yoshdagilar ham), tadbirning start raqami hamda https://bukharanightrace.uz saytiga joylashtirilgan namunaga muvofiq to‘ldirilgan tilxatga ega ishtirokchilar kiritiladi.
- Ishtirok etish uchun qat’iy ravishda skandinavcha yurish uchun mo‘ljallangan tayoqlar to‘plami (2 dona) mavjud bo‘lgandagina ruxsat beriladi. Ushbu tur ishtirokchilari masofa bo‘ylab skandinavcha yurish tayorlari yordamida harakatlanishlari lozim. Yugurish (parvoz bosqichining mavjudligi), sakrash, chang‘ida yurishga taqlid qilish va yarim egilgan oyoqlarda harakatlanish man etiladi.
- Har bir ishtirokchi o‘z tayoqlari to‘plamiga ega bo‘lishi shart. Tadbir tashkilotchilari tomonidan anjom-uskuna taqdim etilmaydi.

4.4. Tadbir rasmiy guvohnomaga ega transponder xronometraji tizimidan foydalangan holda amalga oshiriladi. “5K” va “10K” yo‘nalishlari bo‘yicha yakuniy natijalar, yugurish musobaqalarining xalqaro qoidalariga muvofiq start o‘qi otilishi yoki Tashkilotchilar tomonidan tasdiqlangan istagan boshqa signal berilgan paytdan boshlab hamda marra chizig‘ini bosib o‘tgunga qadar ishtirokchilarning “sof” vaqti (o‘q otish vaqti)ga ko‘ra hisoblanadi.

4.5. Tadbir ishtirokchilarining jami soni: 2000 kishi, shu jumladan:
- KIDS RUN 300 – 80 ta o‘rin;
- KIDS RUN 600 – 80 ta o‘rin;
- 5K – 920 ta o‘rin;
- 10K – 860 ta o‘rin;
- NORDIC WALKING – 60 ta o‘rin.

4.6. Sport dasturi va madaniy ko‘ngilochar tadbirlar jadvali https://bukharanightrace.uz saytida yugurish tadbiridan kamida ikki hafta avval e’lon qilinadi.

## 5. Tadbirning yugurish yo‘lagi

5.1. Yo‘nalish Buxoro shahrining markaziy qismida joylashgan.

5.2. Aylana uzunligi: 5 km.

5.3. Yo‘lning asosiy qoplamasi: asfalt.

5.4. Start va marra joylashuvi: Ark qal’asi atrofidagi shaharning tarixiy qismi.

5.5. 5 va 10 km.lik masofalarda yo‘nalishning har 2,5 - 3 kmida ishtirokchilar uchun ovqatlanish nuqtalari joylastiriladi. Ovqatlanish nuqtalarida suv, sport ichimligi, taklif etiladi.

## 6. Tadbir ishtirokchilari

6.1. Yugurish dasturida qatnashishga 4 yosh va undan katta yoshdagi ishqibozlariga ruxsat beriladi. Ishtirokchining yosh toifasi https://bukharanightrace.uz vebsahifasida ro‘yxatdan o‘tayotganda yoki korporativ arizada belgilangan shakl va qoidalarga muvofiq taqdim etilganda ko‘rsatiladi.

6.2. Korporativ arizalar marathon@acdf.uz elektron pochtasi orqali qabul qilinadi. Korporativ arizani topshirish bo‘yicha barcha tafsilotlarni arizachi o‘z maktubiga javoban oladi.

6.3. Ishtirokchining yoshi yugurish musobaqasi kunida to‘lgan to‘liq yillar soni bilan belgilanadi.

6.4. 4 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan ishtirokchilarning Tadbirda qatnashishlariga qonuniy vakillari yoki guruh rahbari bo‘lgan kattalar hamrohligida ruxsat beriladi.

6.5. Mazkur Nizomning 4-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari voyaga etmagan ishtirokchining Tadbirda ishtirok etishi uchun voyaga etmagan ishtirokchining qonuniy vakili qonuniy vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi shart. Bunday hujjat quyidagilar bo‘lishi mumkin:

6.5. Voyaga yetmagan ishtirokchining Tadbirda ishtirok etishiga ruxsat berish uchun ushbu Nizomning 4 bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari voyaga yetmagan ishtirokchining qonuniy vakili qonuniy vakil vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi shart. Quyidagilar ushbu hujjat bo‘lishi mumkin:

- ota-onadar birining shaxsini tasdiqlovchi ID, pasportda FHDYO bo‘limi tomonidan bolaning tug‘ilganligini qayd etilgani to‘g‘risidagi belgining mavjudligi;
- agar pasportda FHDYo organining bolaning tug‘ilganligini qayd etish to‘g‘risidagi belgisi bo‘lmasa, bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasi ko‘rsatilgan holda ota-onadan birining shaxsini tasdiqlovchi ID, pasport yoki boshqa hujjat;
- vasiyning shaxsini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilganda vasiyning guvohnomasi;
- voyaga yetmagan ishtirokchi qonuniy vakilining vakolatlarini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.

6.6. Ishtirokchilarning yosh toifalari:

| Yosh | Ayollar | Erkaklar |
|---|---|---|
| 4-6 yosh | G‘olib ushbu yosh toifasida aniqlanmaydi | |
| 7-13 yosh | G‘olib ushbu yosh toifasida aniqlanmaydi | |
| 14-15 yosh | A14-15 | E14-15 |
| 16-17 yosh | A16-17 | E16-17 |
| 18-34 yosh | G‘olib ushbu yosh toifasida aniqlanmaydi | |
| 35-39 yosh | A35-39 | E35-39 |
| 40-44 yosh | A40-44 | E40-44 |
| 45-49 yosh | A45-49 | E45-49 |
| 50-54 yosh | A50-54 | E50-54 |
| 55-59 yosh | A55-59 | E55-59 |
| 60-64 yosh | A60-64 | E60-64 |
| 65-69 yosh | A65-69 | E65-69 |
| 70-74 yosh | A70-74 | E70-74 |
| 75-79 yosh | A75-79 | E75-79 |
| 80+ | A80+ | E80+ |

## 7. Yakuniy natijalarni e’lon qilish va mukofotlash tartibi

7.1. Tadbirning barcha g‘olib va sovrindorlari “sof” vaqt (startga o‘q otish yoki Tashkilotchilar tomonidan tasdiqlangan boshqa signal berishdan boshlab, ishtirokchi marra chizig‘ini kesib o‘tgunga qadar) bo‘yicha aniqlanadi.

7.2. Barcha yo‘nalishar bo‘yicha g‘olib va sovrindorlar Tashkilotchi qaroriga ko‘ra qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlanadilar.

7.3. “KIDS RUN – 300” va “KIDS RUN – 600” fanlari bo‘yicha natijalar qilinmaydi, taqdirlash o‘tkazilmaydi.

7.4. “NORDIC WALKING” masofasida mukofotlash amalga oshirilmaydi.

7.5. “5K” va “10K” masofalari bo‘yicha taqdirlash amalga oshiriladi:

- mutlaq hisobda: 1-3 o‘rinlar (erkaklar va ayollar);
- yosh toifalari bo‘yicha: 1-o‘rin (erkaklar va ayollar 18-34 yoshdan tashqari).

7.6. Yosh toifalari va mutlaq hisobda g‘oliblarni taqdirlash dastlabki bayonnomalar tuzilgandan so‘ng amalga oshiriladi. Natijalar https://bukharanightrace.uz saytiga joylashtiriladi.

7.7. “5K” va “10K” masofalaridagi g‘olib va sovrindorlar marra hududida joylashgan taqdirlash bo‘limi (hakamlar hay’ati)ga ishtirokchining shaxsi va yoshini tasdiqlovchi hujjat bilan shaxsni tasdiqlash jarayoni uchun yetib kelishlari shart. Ishtirokchi hozir bo‘linmagan taqdirda natija bekor qilinishi mumkin.

7.8. G‘olib va sovrindorlar taqdirlash supasiga Tadbirning rasmiy kiyimi (futbolka/yengi uzun kuylak)da ko‘tarilishlari shart.

**8. Cheklovlar, taqiqlar, o‘yindan chetlashtirish**

8.1. Alkogol yoki giyohvandlik iste’molidan mast holatda bo‘lgan ishtirokchi yugurish musobaqasiga qo‘yilmaydi (shu jumladan, qatnashish huquqidan mahrum etiladi).

8.2. Tadbirga nozirlik qiluvchi tibbiyot xodimi tashqi ko‘rik asosida (Bosh hakam bilan kelishilgan holda), ishtirokchining musobaqani boshlashga qo‘ymaslikka, yoki musobaqadan chetlatishga haqli.

8.3. Yakuniy bayonnomalarda quyidagi belgilar qo‘llaniladi:

- Agar ishtirokchi belgilangan vaqtda startga chiqmagan bo‘lsa, yakuniy bayonnomada unga DNS (Did not start, ya’ni boshlamadi) holati beriladi.
- Agar ishtirokchi marra chizig‘ini kesib o‘tmagan bo‘lsa (masofani tark etgan bo‘lsa), unga yakuniy bayonnomada DNF (Did not finish, ya’ni yakunlamadi) holati beriladi.
- Ishtirokchi qatnashish huquqidan mahrum etilgan taqdirda unga yakuniy bayonnomada DQ (Disqualified, ya’ni chetlatilgan) maqomi beriladi.

8.4. Ishtirokchi musobaqaning Bosh hakami va ishchi komissiyasining qarori bilan yugurish musobaqasi davomida ham, undan keyin ham chetlashtirilishi (diskvalifikatsiya qilinishi), natijalari esa bekor qilinishi mumkin.

8.5. Tashkilotchilar, agar ishtirokchining masofani bosib o‘tishga jismonan qodir emasligiga asosli shubha tug‘ilsa yoki uning ishtiroki uning hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘dirsa yoki sportchining musobaqadagi ishtiroki musobaqaning nufuzuga putur yetkazishi mumkin bo‘lsa, ishtirokchini ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Bunday holda ishtirokchiga elektron pochta orqali sabablarni tushuntiruvchi javob beriladi. Agar rad etish paytida ishtirokchi start badalini to‘lagan bo‘lsa, u unga to‘liq qiymatda qaytariladi.

8.6. Diskvalifikatsiya sabablari:

a) ishtirokchi start raqamini o‘zgartirgan bo‘lsa;

b) ishtirokchi o‘z klasteri yoki masofasiga tegishli bo‘lmagan joydan masofani boshlasa;

c) ishtirokchi masofani rasmiy startdan oldin yoki start tugagandan keyin boshlagan bo‘lsa;

d) ishtirokchi mexanik harakatlanish vositalaridan foydalangan bo‘lsa;

e) masofaning istalgan oraliq nuqtasida ishtirokchining chip qurilmasi ishlamasa;

f) ishtirokchi startga boshqa ishtirokchining nomiga ro‘yxatdan o‘tgan start raqami bilan chiqqan bo‘lsa;

g) ishtirokchi o‘zi ro‘yxatdan o‘tmagan masofani boshlab, yugurib o‘tgan bo‘lsa;

h) masofadagi ishtirokchiga raqamsiz yuguruvchi yoki hakamlar guruhiga aloqasi bo‘lmagan velosipedchi hamrohlik qilsa;

i) ishtirokchi masofa norasida bolalar bilan ularning aravachasi, maxsus ryukzak va bolalarni piyoda yoki transportda tashish uchun boshqa moslamalarda boshlagan, yugurgan yoki tugatgan bo‘lsa;

j) ishtirokchi musobaqaning boshqa ishtirokchilariga xalaqit berishi yoki zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan asbob-uskuna, jihoz yoki narsalardan (shu jumladan, tayoqchali bayroqlar bilan) foydalangan bo‘lsa;

k) ishtirokchi belgilanmagan yo‘nalish masofasini bosib o‘tgan bo‘lsa;

l) ishtirokchi masofani qisqartirgan (kesgan) bo‘lsa;

m) ishtirokchi ro‘yxatdan o‘tish paytida olingan shaxsiy start raqamisiz masofani bosib o‘tgan yoki start raqamini kiyimining ostida yashirgan bo‘lsa;

n) ishtirokchi masofani bir nechta raqam bilan bosib o‘tgan bo‘lsa (birlamchi bayonnomada ishtirokchiga berilgan raqam va boshqa ishtirokchining raqami bilan).

Agar yakuniy bayonnomada ishtirokchining nazorat nuqtalaridan o‘tganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa, ishtirokchining yo‘nalish yo‘lagida hozir bo‘lgan holatini tasdiqlovchi ma’lumot ko‘rib chiqish uchun qabul qilinishi mumkin. Zikr etilgan ma’lumotni ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi qaror, shuningdek, ko‘rsatilgan ma’lumotlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qaror Bosh hakam va ishchi komissiya tomonidan qabul qilinadi.

## 9. E‘tiroz va shikoyatlar

9.1. Har bir ishtirokchi e’lon qilingan dastlabki bayonnomada ko‘rsatilgan natijaga nisbatan e’tiroz yoki shikoyat bildirishi mumkin.

9.2. E’tiroz bildirish qoidalari va muddatlari:

1) Norozilik og‘zaki ravishda Bosh hakamga Tadbir mobaynida dastlabki yakuniy natijalar e’lon qilinishi bilan darhol bildiriladi.
2) E’tiroz murojaati yozma ravishda 2023-yil 27-avgustgacha (shu kun ham) marathon@acdf.uz elektron manziliga yuboriladi.
3) Norozilik yoki e’tirozda ishtirokchining familiyasi va ismi, start raqami, masofa, da’vo muddaosi ko‘rsatilib, noaniqlikni tuzatishga yordam beruvchi ashyolar ilova qilinishi kerak.
4) Norozilik va e’tirozlar murojaatlari faqat ishtirokchilardan yoki ularning rasmiy vakillaridan qabul qilinadi
5) E‘tirozlarni ko‘rib chiqish muddati – 5 ish kuni.

## 10. Yugurish tadbirining ishtirokchilarini ro‘yxatdan o‘tkazish.

10.1. Yugurish tadbirida ishtirok etish uchun arizalar https://bukharanightrace.uz saytiga topshiriladi.

10.2. Ishtirokchilarni elektron ro‘yxatga olish 18.08.2023 yoki undan oldin soat 23:59 da (Toshkent vaqti bilan) yoki agar jami ishtirokchilar soni chegarasiga yetilganda undan oldinroq yakunlanadi.

10.3. Agar ishtirokchilar soni bo‘yicha chegaralar to‘lmasa Tashkilotchilar ro‘yxatdan o‘tish muddatini uzaytirish huquqiga egalar.

10.4. Ro‘yxatdan o‘tish muddati uzaytirilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar https://bukharanightrace.uz saytiga joylashtiriladi.

10.5. Yugurish tadbiri kuni ishtirokchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish amalga oshirilmaydi.

10.6. Barcha ishtirokchilarga start raqamlari beriladi. Ishtirokchi yugurish tadbirida o‘z raqami ostida qatnashishi shart. Start raqamini boshqa ishtirokchiga o‘tkazishga faqat ishtirokchi elektron ro‘yxatdan o‘tish vaqtida tanishgan ochiq shartnomada ko‘rsatilgan ishtirok etish huquqini berish (o‘tkazish) qoidalariga muvofiq izn beriladi.

10.7. Ro‘yxatdan o‘tgan ishtirokchi sifatida ishtirok etish uchun ariza bergan, ishtirok etish badalini to‘lagan (zaruriyat bo‘lgan taqdirda) hamda ro‘yxatdan o‘tganligi haqidagi tasdiqni olgan shaxs hisoblanadi.

10.8. Ishtirokchiga start to‘plamining taqdim etilishi yugurish tadbiriga ijozat alomati hisoblanadi.

## 11. Start to‘plamlarini berish

11.1. Start to‘plamlarini topshirish Toshkent shahrida 24-avgust kuni va 26-avgustda Buxoroda poyga o‘tkaziladigan joyda (Buxoro viloyati va boshqa shaharlar aholisi uchun, Toshkent shahrida yashovchilar bundan mustasno) amalga oshiriladi. Tarqatish joyi va aniq vaqti to‘g‘risidagi ma’lumot https://bukharanightrace.uz saytiga joylashtiriladi.

11.2. Start to‘plamini olayotganda ishtirokchi quyidagilarni shaxsan taqdim etishi shart:

- shaxsi va yoshini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasi;
- ishtirokchining https://bukharanightrace.uz saytiga joylashtirilgan namuna bo‘yicha to‘ldirgan tilxati;
- 4-18 yoshdagi ishtirokchilar uchun qo‘shimcha ravishda https://bukharanightrace.uz saytiga joylashtirilgan namunaga binoan ota-onalar tomonidan to‘ldirilgan KIDS RUN – 300, KIDS RUN – 600, 5K va 10K masofasidan birida qatnashishga rozilik tilxatining asli.

11.3. Start to‘plami ishonchli vakil orqali qabul qilanayotganda quyidagilarni taqdim etish lozim:
- ishonchli vakilning asl nusxadagi shaxsiy pasporti;
- yugurish tadbiri ishtirokchisining pasport nusxasi;
- https://bukharanightrace.uz saytiga joylashtirilgan namuna bo‘yicha to‘ldirilgan ishtirokchi tilxatining asl nusxasi;

11.4. Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi (agar mavjud bo‘lsa) https://bukharanightrace.uz saytida ro‘yxatdan o‘tish paytida u tomonidan ko‘rsatilgan pasport ma’lumotlariga mos kelishi shart. Aks holda, ishtirokchiga yugurish musobaqasida qatnashish man etilishi mumkin.

11.5. Start to‘plamlarini topshirish faqat ro‘yxatdan o‘tgan ishtirokchilarga 4-bandda ko‘rsatilgan hujjatlar taqdim etilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

11.6. Start to‘plamlarini oldindan topshirish joyi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar https://bukharanightrace.uz saytida musobaqadan kamida ikki hafta avval e’lon qilinadi.

11.7. Ishtirokchining “5K”, “10K” va “NORDIC WALKING” masofalaridagi start to‘plamiga quyidagilar kiradi:
- start raqami;
- vaqtni o‘lchash uchun yakka tartibdagi chip;
- axborot bukleti;
- brendli xaltacha;
- tadbir ramzi tushirilgan futbolka;

11.8. Ishtirokchining “KIDS RUN” masofalaridagi start to‘plamiga quyidagilar kiradi:
- start raqami;
- axborot bukleti;
- brendli xaltacha;
- tadbir ramzi tushirilgan futbolka.

## 12. Yugurish tadbiri doirasida ishtirokchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlar.

12.1. Ishtirokchiga quyidagi xizmatlar ko‘rsatilishi ta’minlanadi:
- Masofa bo‘yicha ishtirokchining start to‘plami;
- 5K, 10K va NORDIC WALKING masofalarida yakka tartibdagi vaqtni belgilash;
- 5K, 10K va NORDIC WALKING masofalarida yakuniy bayonnomadagi natija;
- 5K, 10K va NORDIC WALKING masofalarida oziq-ovqat nuqtalarida xizmat ko‘rsatish;
- 5K, 10K, NORDIC WALKING, KIDS RUN – 300, va KIDS RUN – 600 masofalarida avtomatik ravishda suratlarni qidirish xizmati;
- 5K, 10K, NORDIC WALKING, KIDS RUN – 300, va KIDS RUN – 600 masofalarining alohida joylarida video tasvirga olish;
- 5K, 10K, NORDIC WALKING, KIDS RUN – 300, va KIDS RUN – 600 masofalari uchun ishtirokchining https://bukharanightrace.uz saytida joylashtirilgan elektron sertifikati;
- Yugurish yo‘lagi bo‘ylab (zarurat tug‘ilganda) tez tibbiy yordam ko‘rsatish;
- Marra chopqiri medali;
- Kiyinish xonalari, garderob, hojatxonalar;
- madaniy-ko‘ngilochar dastur.

## 13. Yugurish tadbirida qatnashish uchun to‘lov.

13.1. Yugurish tadbirlarida ishtirok etish badal miqdori:

| Ro‘yxatdan o‘tish vaqti | Masofa | Narxi (so‘mda) |
|---|---|---|
| 18.08.2023-y. soat (23:59 Toshkeht vaqti bilan)gacha | KIDS RUN-300 | 100 000 so‘m |
| | KIDS RUN-600 | 100 000 so‘m |
| | NORDIC WALKING | 100 000 so‘m |
| | 5K | 200 000 so‘m |
| | 10K | 200 000 so‘m |

13.2. Ishtirok etish badali **https://bukharanightrace.uz** saytida lotin harflari bilan ro‘yxatdan o‘tish shaklini to‘ldirgandan so‘ng to‘lanadi.

13.3. To‘lov usullari:

- on-layn rejimida Visa International, MasterCard, Maestro, Uzcard, Humo to‘lov tizimlarining bank kartalari orqali. To‘lovni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tafsilotlar **https://bukharanightrace.uz** saytida ko‘rsatilgan.

13.4. Yugurish tadbiri bekor qilinganda ishtirok etish to‘lovi qaytarilmaydi.

13.5. Puli to‘langan ro‘yxatdan o‘tishni bekor qilish va pulni qaytarish mumkin emas.

## 14. Yugurish tadbirlari ishtirokchilarining xavfsizligi va javobgarligi.

14.1. Tomoshabinlar va ishtirokchilar xavfsizligini ta‘minlash maqsadida tadbir Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqalarni jalb qilgan holda o‘tkaziladi.

14.2. Har bir ishtirokchi o‘z sog‘lig‘ini mustaqil ravishda nazorat qilib borishi va uzoq muddatli jismoniy faoliyatga qarshi ko‘rsatmalar mavjudligiga qarshi tibbiy ko‘rikdan o‘tishi shart.

14.3. Tadbir ishtirokchilari, agar kerak bo‘lsa, butun yo‘nalish bo‘ylab yugurish tadbirlari davomida shoshilinch tibbiy yordam xizmatlari, shuningdek, start va finish hududlarida tez tibbiy yordam xizmati bilan ta‘minlanadilar.

14.4. Tadbir tashkilotchilari ishtirokchining hayoti yoki jarohati, uning mulkining yo‘qolishi yoki zararlanishi, shuningdek, tadbir davomida ishtirokchiga etkazilgan jismoniy zarar uchun javobgar emas. Ushbu qoida amaldagi tadbirning rasmiy sanalaridan oldin, davomida va undan keyin ham amal qiladi.

## 15. Ishtirokchilar sug‘urtasi

15.1. Tadbir tashkilotchilari tomonidan yugurish tadbirida qatnashuvchilarga baxtsiz hodisalardan hayoti va sog‘lig‘ini sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta polisini taqdim etishni tavsiya etiladi.

15.2. Ixtiyoriy sug‘urtalash sug‘urtalovchi (ishtirokchi tanlagan sug‘urta tashkiloti) va sug‘urtalangan (ishtirokchi) o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

## 16. Tadbirni foto va video suratga olish

16.1. Tashkilotchilar tomonidan tadbirni foto va video tasvirga olish ishlari cheklovsiz olib boriladi.

16.2. Tashkilotchilar tadbir davomida olingan materiallardan qonuniy faoliyat doirasida o‘z xohishiga ko‘ra foydalanish, shuningdek, o‘tkazilayotgan tadbirlarni reklama qilish huquqiga ega.

## 17. Yugurish tadbirlariga o‘zgartirish kiritish va bekor qilish shartlari

17.1. Amalga oshiriladigan tadbirlar Tashkilotchilarning nazorati ostida bo‘lishi mumkin bo‘lmagan favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlar oqibatida sodir bolishi tufayli bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin. Xususan, bunday holatlarga quyidagilar kiradi: tabiiy ofatlar (zilzila, toshqin, bo‘ron); sekundiga 15 metr va undan ortiq shamol, havo harorati Selsiy bo‘yicha – 25 C dan past va +45 C va undan yuqori, 12 soatdan ko‘p va kam vaqt ichida 20 mm va undan ko‘p miqdoridagi yog‘ingarchilik, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi favqulodda holat deb tan oladigan va yuzaga kelishi mumkinligi to‘g‘risida ogohlantiradigan hodisalar, yong‘in, ommaviy kasalliklar (epidemiya, pandemiya), ish tashlashlar, harbiy harakatlar, terrorizm akti, sabotaj, transportdagi cheklovlar, davlatlarning ta’qiqlovchi choralari, xalqaro sanksiyalarni qabul qilish sababli savdo operasiyalarini, shu jumladan alohida mamlakatlar bilan ta’qiqlash, davlat hokimiyati, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining qonunlari, harakatlari, harakatsizligi, tashkilotchilarga bo‘gliq bo‘lmagan boshqa holatlar.

17.2. Yuqoridagi holatlar yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi tahdidi bo‘lgan taqdirda yugurish tadbiri bekor qilinishi yoki boshqa muddatga o‘zgartirilishi mumkin, yugurish tadbirida qatnashish uchun ro‘yxatdan o‘tgan ishtirokchilarning telefon raqamiga SMS orqali xabar beriladi, yoki ro‘yxatdan o‘tish jarayonida ko‘rsatilgan elektron pochta manziliga xat yuboriladi.

## 18. Tadbirni moliyalashtirish shartlari

18.1. Tadbirni tashkil etish va o‘tkazish xarajatlari quyidagilar hisobiga amalga oshiriladi:

- Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari;
- jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag‘lari;
- qonun hujjatlarida man etilmagan boshqa manbalar;

18.2. Norezident ishtirokchilar uchun kirish to‘lovlari, safar xarajatlarini (yo‘l, turar joy, ovqatlanish, kunlik) to‘lash ishtirokchini jo‘natuvchi tashkilotlar yoki ishtirokchilarning o‘zlari tomonidan amalga oshiriladi.

## 19. Yakuniy qoidalar

19.1. Ushbu Nizom tadbirda ishtirok etish uchun rasmiy taklifnoma hisoblanadi.

19.2. Ushbu Nizomda belgilangan holatlar va vaziyatlar Tashkilotchilar tomonidan respublika, mintaqaviy, shahar huquqiy hujjatlari normalari hamda ushbu Nizomni hisobga olgan holda individual tartibda ko‘rib chiqiladi.

19.3. Tashkilotchilar ushbu Nizomga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega.